



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



ANDIJON VILOYATIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

2024- yil yanvar - noyabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi:*
74 228-30-37



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3 770,8 mln. AQSh dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 789,6 mln. AQSh dollariga yoki 17,3 % ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar - noyabr, mln. AQSh dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **3 770,8** (-17,3 %)

(2023- y.: **4 560,4**)



Saldo

2024- y.: **-1 640,6** (2023- y.: **-2 406,0**)



Eksport

2024- y.: **1 065,1** (-1,1 %)

(2023- y.: **1 077,2**)

TSA'dagi ulushi

71,8 %


28,2 %



Import

2024- y.: **2 705,7** (-22,3 %)

(2023- y.: **3 483,2**)




Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi 1 065,1 mln. AQSh dollariga (1,1 % ga kamaydi) va import hajmi 2 705,7 mln. AQSh dollariga (22,3 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 1 640,6 mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)

<p>XXR</p> <p>TSA – 1 079,6</p> <p>Eksport: 90,1 Import: 989,5</p> <p> 28,6 %</p>	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 921,8</p> <p>Eksport: 0,4 Import: 921,4</p> <p> 24,4 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 447,0</p> <p>Eksport: 243,6 Import: 203,4</p> <p> 11,9 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 442,0</p> <p>Eksport: 431,4 Import: 10,6</p> <p> 11,7 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 126,6</p> <p>Eksport: 96,1 Import: 30,5</p> <p> 3,4 %</p>
<p>Meksika</p> <p>TSA – 104,1</p> <p>Eksport: - Import: 104,1</p> <p> 2,8 %</p>	<p>Braziliya</p> <p>TSA – 96,4</p> <p>Eksport: 0,5 Import: 95,9</p> <p> 2,6 %</p>	<p>AQSH</p> <p>TSA – 96,1</p> <p>Eksport: 1,5 Import: 94,6</p> <p> 2,5 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 69,7</p> <p>Eksport: 69,6 Import: 0,1</p> <p> 1,8 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 50,7</p> <p>Eksport: 14,3 Import: 36,4</p> <p> 1,3 %</p>

Andijon viloyati jahonning 77 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (28,6 %), Koreya Respublikasida (24,4 %), Rossiya Federatsiyasida (11,9 %), Qozog‘istonda (11,7 %), Qirg‘iz Respublikasida (3,4 %) va Meksikada (2,8 %) qayd etilgan.













ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)




Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	567,3	1 208,9	1 079,6
<i>Eksport</i>	53,4	58,9	90,2
<i>Import</i>	514,0	1 150,0	989,5
Koreya Respublikasi	1 433,9	1 293,4	921,8
<i>Eksport</i>	0,8	0,3	0,4
<i>Import</i>	1 433,1	1 293,2	921,4
Rossiya	424,5	293,8	447,0
<i>Eksport</i>	164,7	209,4	243,6
<i>Import</i>	259,8	84,4	203,4
Qozog'iston	418,7	512,7	442,0
<i>Eksport</i>	410,8	505,0	431,4
<i>Import</i>	7,9	7,6	10,6
Qirg'iz Respublikasi	423,5	205,0	126,6
<i>Eksport</i>	390,0	167,6	96,1
<i>Import</i>	33,5	37,3	30,5
Meksika	49,9	199,3	104,1
<i>Eksport</i>	0,00001	-	-
<i>Import</i>	49,9	199,3	104,1
Braziliya	47,4	209,8	96,4
<i>Eksport</i>	0,4	0,3	0,5
<i>Import</i>	46,9	209,5	95,9
AQSH	66,3	156,5	96,1
<i>Eksport</i>	0,2	1,6	1,5
<i>Import</i>	66,1	154,9	94,6
Afg'oniston	10,6	16,4	69,7
<i>Eksport</i>	10,6	16,4	69,6
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,1
Turkiya	99,5	96,2	50,7
<i>Eksport</i>	38,2	23,1	14,3
<i>Import</i>	61,4	73,0	36,4

Davlatlar		2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Slovakiya	11,0	28,3	42,5
	<i>Eksport</i>	0,001	-	-
	<i>Import</i>	11,0	28,3	42,5
	Belarus Respublikasi	8,1	34,2	41,6
	<i>Eksport</i>	3,2	28,7	39,4
	<i>Import</i>	4,9	5,5	2,2
	Ozarbayjon	18,5	23,9	40,4
	<i>Eksport</i>	18,0	23,9	40,3
	<i>Import</i>	0,4	0,1	0,1
	Hindiston	34,6	52,7	33,3
	<i>Eksport</i>	1,0	0,1	1,5
	<i>Import</i>	33,6	52,6	31,8
	Pokiston	1,9	2,8	21,0
	<i>Eksport</i>	1,9	1,1	14,7
	<i>Import</i>	0,0	1,7	6,3
	Polsha	10,0	14,6	18,4
	<i>Eksport</i>	1,3	0,6	1,9
	<i>Import</i>	8,7	14,1	16,5
	Chexiya	15,8	14,5	17,5
	<i>Eksport</i>	0,1	-	-
	<i>Import</i>	15,7	14,5	17,5
	Tayland	8,6	11,6	14,8
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	8,6	11,6	14,8
	Vetnam	0,7	15,7	14,4
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,1
	<i>Import</i>	0,7	15,7	14,3
	Germaniya	35,7	40,7	14,3
	<i>Eksport</i>	0,7	0,3	0,5
	<i>Import</i>	34,9	40,4	13,9



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-noyabr)*




Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 60,0 % ulush bilan 2 262,0 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Marxamat tumani 0,5 % ulush bilan 17,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 29,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga oshdi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 70,4 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, 1 115,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 865,4 mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import 250,4 mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

Rossiya – 40,1



Qozog'iston – 39,6




Qirg'iz
Respublikasi – 11,3



Belarus – 3,7



Ozarbayjon – 3,6



Ukraina – 0,5



Tojikiston – 0,5



Turkmaniston – 0,4



Moldova – 0,2




Armaniston – 0,1



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushi, Rossiya Federatsiyasi (40,1 %), Qozog'iston (39,6 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (11,3 %) bilan qayd etildi.

ANDIJON VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 1 057,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 810,7 mln. AQSh dollari, import hajmi esa 246,8 mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



ANDIJON VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni 445 taga yetdi va ular tomonidan 1 065,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 1,1 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



5,8 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,3 %

2. Ichimliklar va tamaki



0,3 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



5,8 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,03 %

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



1,1 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



22,3 %

7. Sanoat tovarlari



39,3

8. Mashinalar va transport asbob-uskunolari



24,0

9. Turli xil tayyor buyumlar



1,0 %

10. Xizmatlar



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	1 077,2	1 065,1	95,9	98,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	35,6	61,3	95,0	172,1	3,3	5,8
Ichimliklar va tamaki	5,5	3,4	272,9	60,9	0,5	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,6	3,0	64,5	83,2	0,3	0,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,1	61,7	10,1	5 749,4	0,1	5,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0002	0,35	30,7	183 013,2	0,00002	0,03
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	19,1	11,9	75,3	62,4	1,8	1,1
Sanoat tovarlari	221,9	237,6	85,8	107,1	20,6	22,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	498,7	418,7	117,7	84,0	46,3	39,3
Turli xil tayyor buyumlar	279,4	256,1	80,0	91,7	25,9	24,0
Xizmatlar	12,3	11,0	111,1	89,7	1,1	1,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,2 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalari (39,3 %), turli xil tayyor buyumlar (24,0 %), sanoat tovarlari (22,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,8 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (5,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-noyabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	55 225,9	164,1
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	3 899,9	1 2,5 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 108,3	173,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	726,3	90,5
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	3 355,2	60,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	1 580,8	62,9
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	620,3	121,1
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	570,6	147,1
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo	86,2	71,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	61 691,3	5 7,5 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	345,9	1830,1 m.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	8 980,1	52,2
Noorganik kimyo moddalari	1 311,9	2,1 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	491,7	2,1 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	496,8	189,2
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojaxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	355,2	60,6
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	253,9	117,2


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisba-tan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	216 964,7	106,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar,	8 128,9	171,7
Cho'yan va po'lat	3 801,0	34,5 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3 610,1	126,7
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	3 365,1	2,4 m.
Rangli metallar	1 100,7	71,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	335,7	6,3
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	240,5	20,5
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	63,3	8,7 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	260 767,4	79,5
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	136 505,9	90,3
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	8 908,0	90,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	8 667,4	113,5
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	805,4	18,0 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	335,1	78,4
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	238 439,0	92,1
Poyabzal	8 943,3	67,7
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	4 899,8	189,2
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 810,3	104,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	587,2	2,2 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	390,9	24,7
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari,	22,9	110,0
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	5,3	112,0

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlariga 810,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportdagi ulushi 76,1 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



■ MDH davlatlari

■ Boshqa davlatlar

2024- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston, XXR, Qirg'iz Respublikasi, Ozarbayjon va Belarus kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 94,9 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, % da)






ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-noyabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Qozog'iston	505,0	431,4	123,0	85,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	209,4	243,6	127,1	116,3	2	2
Qirg'iziston	167,6	96,1	43,0	57,3	3	3
Xitoy	58,9	90,2	110,3	153,2	4	4
Afg'oniston	16,4	69,6	154,9	4,2 m.	9	5
Ozarbayjon	23,9	40,3	132,4	168,9	6	6
Belarus	28,7	39,4	9,0 m.	137,3	5	7
Pokiston	1,1	14,7	60,6	13,0 m.	14	8
Turkiya	23,1	14,3	60,5	62,0	7	9
Ukraina	4,4	4,6	105,4	105,0	10	10
Tojikiston	20,5	4,3	2,7 m.	20,9	8	11
Turkmaniston	3,4	3,6	10,6 m.	104,9	11	12
Polsha	0,6	1,9	43,1	3,5 m.	16	13
Moldova Respublikasi	1,3	1,9	33,4	142,7	13	14
Hindiston	0,128	1,5	13,1	11,5 m.	18	15
AQSh	1,562	1,5	724,7	93,7	12	16
BAA	0,1	1,4	20,0	23,3 m.	19	17
Mongoliya	0,05	0,7	-	13,5 m.	20	18
Latviya	0,92	0,5	-	59,3	15	19
Braziliya	0,3	0,5	69,0	163,3	17	20



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr)*



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 42,8 % bilan 456,3 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Xonobod sh. 0,4 % bilan 4,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar, O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo‘yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI









Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida 116,3 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,2 ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (46,0 %), Rossiya Federatsiyasi (27,0 %), Pokiston (8,2 %), Afg'oniston (6,8 %) hamda Polsha (2,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi 57,0 mln. AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavotlar eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 61,6 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum yangi uzilgan</p> <p>3,6 mln. AQSH dollari</p> <p>4,7 ming tonna</p> <p> 55,4 % ↑</p>	<p>Karam</p> <p>1,7 mln. AQSH dollari</p> <p>9,1 ming tonna</p> <p> 12,0 % ↑</p>	<p>Bodring</p> <p>1,9 mln. AQSH dollari</p> <p>2,6 ming tonna</p> <p> 35,3 % ↑</p>	<p>Pomidor</p> <p>2,6 mln. AQSH dollari</p> <p>2,7 ming tonna</p> <p> 36,2 % ↑</p>
<p>Sabzi</p> <p>4,0 mln. AQSH dollari</p> <p>25,8 ming tonna</p> <p> 86,5 % ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>0,9 mln. AQSH dollari</p> <p>5,6 ming tonna</p> <p> -51,7 % ↓</p>	<p>Yeryong'oc</p> <p>0,4 mln. AQSH dollari</p> <p>0,6 ming tonna</p> <p> 37,1 % ↑</p>	<p>Qovun va tarvuz</p> <p>4,9 mln. AQSH dollari</p> <p>21,7 ming tonna</p> <p> -17,7 % ↓</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	91,3	26213,2	46,0
 Rossiya Federatsiyasi	17,0	15409,9	27,0
 Pokiston	0,8	4683,7	8,2
 Afg'oniston	0,6	3870,7	6,8
 XXR	3,6	2695,6	4,7
 Polsha	0,6	1381,4	2,4
 Turkiya	0,5	1243,0	2,2
 Latviya	1,0	366,0	0,6
 BAA	0,1	272,5	0,5
 Qozog'iston	0,2	259,6	0,5
 Belarus	0,2	143,5	0,3
 Mongoliya	0,1	36,9	0,1
 AQSh	0,01	35,8	0,1
 Ukraina	0,04	24,3	0,04
 Saudiya Arabistoni	0,05	12,5	0,02

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-noyabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 46,0 %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 1,7 barobar ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida yakuni bo‘yicha 424,3 mln. AQSh dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 45,4 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 3,1 % ga ortdi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (54,8 %), ip kalava (31,7), trikotaj mato (12,7 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 382 turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 30 ta davlatiga eksport qilindi.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)



2 433,4 (2023 y.: 2 581,0)

Jami



1 057,3 (1 037,3)

Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari



952,3 (1 040,0)

Ip kalava



251,1 (274,0)

Trikotaj mato



119,4 (146,2)

Ipak va ipak mahsulotlari




34,2 (51,5)


Gazlamalar

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



 Xizmatlar eksporti hajmi 8 931,9 ming. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,0 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 75,4 % ga oshdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (51,5 %), safarlar (turizm) (28,8 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (10,0 %) va transport xizmatlari (9,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.




ANDIJON VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 2 458,3 mln. AQSh dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 20,4 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (58,2 %), sanoat tovarlari (20,0 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 630,8 mln. AQSh dollariga kamaydi va 2 458,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 76,3 mln. AQSh dollariga yetdi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	3 089,1	2 458,3	123,9	79,6	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	17,8	27,1	133,3	151,8	0,6	1,1
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,4	238,6	141,6	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	20,4	22,8	108,8	111,5	0,7	0,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	27,2	147,1	218,6	540,2	0,9	6,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	2,8	1,3	502,5	45,3	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	245,5	160,8	144,5	65,5	7,9	6,5
Sanoat tovarlari	579,8	492,2	102,5	84,9	18,8	20,0
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	2 010,5	1 430,2	138,1	71,1	65,1	58,2
Turli xil tayyor buyumlar	117,7	100,2	128,5	85,1	3,8	4,1
Xizmatlar	67,1	76,3	40,3	113,7	2,2	3,1



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	9 377,8	2,2 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	7 607,3	153,9
Sabzavotlar va mevalar	2 423,2	94,4
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	2 506,7	3,1 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 907,3	123,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	1 348,0	94,5
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	1 166,6	60,4
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	757,6	2,5 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	440,3	141,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	5 931,9	87,9
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	4 581,3	28,7 m.
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina ham)	4 191,4	93,1
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	4 125,4	62,4
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari	2 759,4	177,4
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	890,7	145,3
Metall rudalari va metall parchalari	67,6	6,0 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	125 351,9	13,2 m.
Ko'mir, koks va briketlar	15 288,0	93,9
Tabiiy yoki sun'iy gaz	6 474,2	4,5 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	1 254,3	49,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	3,3	1,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	46 378,8	59,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	42 094,1	80,8
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	25 451,7	56,1
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	18 363,1	70,6
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	8 470,5	50,0
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	8 720,3	86,1

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	205 385,0	103,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	104 275,6	79,9
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	115 758,6	79,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	41 096,6	69,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	12 962,2	47,0
Rangli metallar	9 206,3	72,9
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	1 285,3	38,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi	1 383,6	82,7
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	852,8	188,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	846 035,1	67,1
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	166 325,3	116,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	129 323,1	66,5
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	122 473,9	132,4
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	72 073,6	33,1
Metallarni qayta ishlash mashinalari	45 243,6	2,6 m.
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	13 965,6	27,7
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	32 752,8	108,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	34 905,1	62,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	36 499,0	101,9
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	17 510,3	104,3
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	8 133,9	130,3
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1 080,7	199,5
Poyabzal	1 077,6	70,0
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	769,4	67,4
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	185,0	97,3

2024- yil yanvar-noyabr natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlaridan import ulushi 9,3 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga oshdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida Andijon viloyati 64 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Meksika, Braziliya, AQSh va Slovakiya) jami importning 10 dan 9 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, % da)






ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

Davlatlar	mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Xitoy	1015,4	895,3	2,2 m.	88,2	2	1
Koreya Respublikasi	1142,2	834,6	87,3	73,1	1	2
Rossiya Federatsiyasi	76,7	184,8	31,7	2,4 m.	6	3
Meksika	175,4	99,7	4,0 m.	56,9	4	4
Braziliya	190,2	91,3	4,5 m.	48,0	3	5
AQSh	136,1	90,3	2,1 m.	66,3	5	6
Slovakiya	25,4	36,7	2,5 m.	144,3	11	7
Turkiya	65,3	34,5	118,5	52,8	7	8
Qirg'iziston	33,9	28,1	117,9	83,0	10	9
Xindiston	49,2	27,0	153,5	54,9	8	10
Chexiya	13,9	16,2	96,2	116,3	12	11
Polsha	12,3	15,1	153,0	122,6	14	12
Tailand	10,6	12,6	135,2	119,0	16	13
Germaniya	35,9	12,1	119,7	33,8	9	14
Vetnam	12,9	10,8	19,5 m.	83,5	13	15
Qozog'iston	7,1	9,5	100,4	134,0	18	16
Eron Islom Respublikasi	9,5	6,8	126,5	72,0	17	17
Pokiston	1,7	5,8	57,7 m.	3,5 m.	20	18
Italiya	10,9	4,9	132,4	45,3	15	19
Portugaliya	3,5	4,5	2,1 m.	128,9	19	20



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-noyabr)



2024- y.


2023- y.

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 66,7 % bilan 1 642,6 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Ulug'nor tumani 0,1 % bilan 2,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)




2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 76,1 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 3,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 16,8 % ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi Intellectual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan (93,1 %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, boshqa joyda tasniflanmagan (3,5 %) ga tegishli bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 492,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,1 % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 20,0 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

1 787,4 mln AQSH doll.
Ulushi – 36,0 %



Rossiya

1 609,1 mln AQSH doll.
Ulushi – 32,4 %



XXR

600,9 mln AQSH doll.
Ulushi – 12,1 %



Qozog'iston

242,5 mln AQSH doll.
Ulushi – 4,9 %



Turkiya

125,8 mln AQSH doll.
Ulushi – 2,5 %



Koreya Respublikasi

Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (205,4 mln. AQSh dollari), rezina buyunlari (115,8 mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (104,3 mln. AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (41,1 mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.